

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN QOZOG'ISTON
RESPUBLIKASI HAMKORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI.**

*Oltiboyev Alisher Meyliyevich,
Alfraganus University dotsenti v.b
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
e-mail: alisheroltiboyev6@gmail.com*

Annotation: Ushbu maqola O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari ortasidagi hamkorlik aloqalarining huquqiy asoslarini yaratilishi hamda iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan bitim va shartnomalarning muhim jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, madaniy aloqalar, shartnomalar, bitimlar, yagona iqtisodiy makon, ikki tomonlama, ko'p tomonlama, huquqiy asos, strategik sherik.

**ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН.**

Аннотация: В статье анализируются важные аспекты соглашений и договоров, направленных на создание правовой базы сотрудничества между Республиками Узбекистан и Казахстан, дальнейшее развитие взаимодействия в экономической, культурной и политической сферах.

Ключевые слова: сотрудничество, культурные связи, договоры, соглашения, единое экономическое пространство, двусторонний, многосторонний, правовая база, стратегический партнер.

**LEGAL BASIS OF COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN.**

Annotation: This article analyzes the important aspects of the agreements and

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

contracts aimed at creating the legal framework for cooperation between the Republics of Uzbekistan and Kazakhstan and further developing cooperation in the economic, cultural and political spheres.

Key words: *cooperation, cultural relations, treaties, agreements, single economic space, bilateral, multilateral, legal framework, strategic partner.*

O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasi bilan hamkorligi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim masalalardan biridir. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar tarixan uzoqga borib, xalqlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘sningchilik, madaniy aloqalar va savdo-iqtisodiy aloqalarga asoslangan. Bu hamkorlikning huquqiy asoslari esa yangi va zamonaviy shartnomalar, bitimlar va xalqaro kelishuvlarga asoslanib shakllanmoqda

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi huquqiy asoslar birinchi navbatda turli xil xalqaro shartnomalar va bitimlar orqali qo‘yiladi. Bu ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni tartibga solish uchun mustahkam huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Qozog‘iston va O‘zbekiston orasidagi assosiy huquqiy hujjatlardan biri - 1992 yil 24 iyunda Turkiston shahrida O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalari Prezidentlarining mustaqil davlatlar rahbarlari sifatida uchrashishida birinchi marta respublikalar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi Shartnomani imzolanishi mintaqadagi tashqi siyosatni belgilashda muhim o‘rin tutuvchi ishonchli o‘zaro hamkorlik huquqiy asoslari davrini boshlab berdi [1, 517 b.].

1993 yil 28 iyulda Almati shahrida O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv chog‘ida ikki davlat o‘rtasida – 1994 – 2000 yillarda iqtisodiy birlashishni takomillashtirish va ayrim to‘lovlari, texnikaviy kreditga doir qarzlarni qayta rasmiylashtirish, yetkazib berilayotgan gaz, elektr quvvati va neft mahsulotlari haqidan qolgan qarzlar, oziq-ovqat uchun don yetkazib berish shartlari to‘g‘risidagi bitimlariga doir xujjatlarning imzolanganligi davlatlararo hamkorlikning huquqiy asosini shakllantirish bilan birga keyingi yillarda imzolangan qator hujjatlarning huquqiy bazasi sifatida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

amaliyotda o‘z ifodasini topdi [2].

1994 yil 10 yanvarda Toshkentda O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalari “o‘rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish to‘g‘risida”gi Shartnama, Qozog‘iston davlat delegatsiyasining tashrifi yakunlari bo‘yicha Qo‘shma Bayonot imzolangan. Shuningdek, ilm-fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash, turizm va sport sohalarida hamkorlikni mustahkamlash to‘g‘risida hukumatlararo Bitim hamda boshqa hujjatlar imzolanishi ikki davlat hamkorligiga oid huquqiy bazani mustahkamlashi bilan birga munosabatlarni yaxshi yo‘lga qo‘yilishini istiqboliga xizmat qilmoqda [3].

1998 yil 30-31 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida abadiy do‘slik to‘g‘risidagi Shartnomani imzolandi. Shuningdek, yana bir muhim hujjat 1998-2005 yillarda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi Shartnomani imzolanishi ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asosining yuqori pog‘onaga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. Jumladan, imzolangan bu Shartnomalarda kelajakda mamlakatlarimiz o‘rtasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi hukumatlari o‘rtasida bir qator ikki tomonlama Shartnomalar imzolandi: jinoyatga qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risida, ishlab chiqarish kooperatsiyasi to‘g‘risida, neft va gazni qidirib topish va qayta ishlashda hamkorlik qilish to‘g‘risida, O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi bilan Qozog‘iston ta’lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida, Toshkent hokimiyati va Ostona shahar hokimiyati o‘rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik to‘g‘risidagi Bitimlar O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligining huquqiy asosini boyitishi bilan birga o‘zaro munosabatlarning taraqqiyotini belgilaydi [1, 573 b.].

Ta’kidlash joizki, 2013 yil 14 iyunda O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida imzolangan Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomada ikki tomonlama

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

aloqalarning asosiy tamoyillari o‘z aksani topgan [4]. 2017 yil 22-23 martda Ostonada ikki mamlakatlar rahbarlari tomonidan Qozog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo‘sni mustahkamlash to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Hukumatlarimiz o‘rtasida 2017-2019 yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi qabul qilindi. Umuman, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga ilk tashrifi jami 840 million dollardan ortiq 91 bitim imzolangani bilan tarixga kirdi. Bundan tashqari, mazkur tashrif doirasida Qozog‘istonning qator mahsulotlari, un, keramik plitkalar uchun aksiz solig‘ining hamda Qozog‘iston yuklarining O‘zbekiston orqali tranziti uchun yuqori stavkalar masalasi hal qilindi. Prezident N.Nazarboyev Qozog‘iston O‘zbekistonni yaqin mamlakat, yaxshi qo‘sni sifatida ko‘rishini qayd etib, jumladan shunday dedi: “Mohiyatiga ko‘ra, birodar O‘zbekiston Qozog‘iston uchun strategik sherik hisoblanadi. Va bizning O‘zbekiston bilan do‘stlik hamda hamkorlikni chuqurlashtirishga bo‘lgan intilishimiz o‘zgarmaydi” [5].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlik har jihatdan, jumladan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ta’lim sohalarida davom etmoqda. Bu hamkorlikning huquqiy asoslari ikki davlatning xalqaro kelishuvlari va shartnomalari bilan mustahkamlangan. Davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamligini yanada oshirish va yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish huquqiy mexanizmlarning rivoji va ularning to‘g‘ri tartibga solinishiga bog‘liqdir. O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligining huquqiy asosi O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan yo‘lga qo‘ygan ko‘p qirrali hamkorligining ustuvor sohasi iqtisodiy hamkorlik va transport kommunikatsiyasi bilan birga ilm-fan, madaniyat sohalaridagi aloqalarning mustahkamlanib borishini belgilab beruvchi huquqiy asos sifatida ham ahamiyatlidir. Shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligining huquqiy asosi davlatlararo munosabatlarning kelgusidagi taraqqiyotini belgilab, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиқлол йилномаси. Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т-2001 й. –Б. 624
2. Халқ сўзи газетаси 1993 йил 30 июль.
3. Халқ сўзи газетаси 1994 йил 11 январь.
4. Халқ сўзи газетаси 2017 йил 17 март.
5. Халқ сўзи газетаси 2017 йил 15 сентябрь.